



TOHIR MALIK ASARLARIDA DISFEMIK VA EVFEMIK VOSITALARNING SEMANTIK TAHLILI (“ALVIDO BOLALIK” ASARI QIYOSIDA)

*O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
2-kurs talabasi Sa’dullayeva Nilufar Shokir qizi
Ilmiy rahbar: Erbutayeva Shalola Utkirovna*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Tohir Malikning “Alvido bolalik” asari tarkibida qo‘llangan disfemik va evfemik birliklar tahlil qilindi. Shuningdek disfemik birliklarning evfemik shakllariga, evfemik birliklarining esa disfemik shakllariga to‘xtaldik. Disfemik birliklarning ibora shakliga ham teng ekanligi ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: evfemik vosita, disfemik vosita, “qanotiga olmoq” iborasi, “qaytish qilib bermoq” birligi, “ egasiga topshirmoq” birligi, “go‘rga tiqmoq” iborasi;

Kirish. Tilda shunday vositalar borki, ular yordamida mavjud noqulayliklar bartaraf etiladi. Bunday vositalardan biri evfemik qatlamdir. Yangicha axloq - odob, dunyoqarash asosida tabulashtirilgan birliklarning evfemalari vujudga keladi. Boshqacha qilib aytganda, tilda mavjud noqulay birliklar qanchalik tabulashtirilmasin, davr taqozasi o‘laroq evfemik va disfemik vositalar qayta tirilaveradi. Evfemizmlar, qisman disfemizmlar ham, til taraqqiyotida shu tilda so‘zlashuvchi xalq ruhiyati bilan bog‘liq holda shakllanadigan lug‘aviy birikmalardir. Evfemizmlar mutloq jarayonida sodir bo‘ladigan nutqiy hodisa bo‘lib, odatda, tilda biror aytilishi noqulay bo‘lgan so‘z yoki ibora o‘rnida boshqa so‘z qo‘llash, uni yumshatish asosida yuzaga keladi. Tilda aytish noqulay, noo‘rin, nutqiy madaniyatsizlik, ma’naviyatsizlik hisoblangan so‘z va iboralarni yumshoq, beozor va silliq tarzda ifodalashdan tashqari, qo‘pol va dag‘al tarzda izhor qilish usuli ham mavjud. Bu so‘zlovchi va yozuvchining voqelikka salbiy munosabatini ifodalashi, nafrat va g‘azabini anglatishi natijasi o‘laroq yuzaga keluvchi so‘z va iboralar evfemizmlarning aksi - kakofemizm yoki disfemizmlardir. Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, evfemik vositalar nafaqat aytish man etilgan, balki mumkin bo‘lmagan narsa predmet, voqea hodisaning nomini yashirish maqsadida, madaniy,



badiiy nutq hosil qilishda, shuningdek uslubning rangbarang ko‘rinishlarini yaratishda xizmat qilar ekan.

Evfemizm xalq ruhiyatini ifoda etadi. Miraziz Mirtojiyev “O‘zbek tili semasiologiyasi” asarida: “Evfemizm va disfemizm shu tilda gaplashuvchi xalq ruhiyatining o‘z so‘zlari leksik ma’nosi taraqqiyotida aks etilishi deb qaraladi¹”, - deya ta’riflaydi.

Disfemizm hodisaga nisbatan O.S.Axmanova tomonidan shunday izoh beriladi: “Disfemizm muayyan matndagi nimanigdir nomini ma’lum darajada dag‘al, betakalluf, qo‘pol nom bilan almashtirib ifoda etuvchi tropdir²”. Yuqorida keltirilgan fikrlar tasdig‘i sifatida matn keltirib o‘tishni joiz topdik. M: - *Turobning opasi erga tegyapti-ku? Yigirma ikkinchida ziyofati ekan. Bir qizitib berasan*. (“Alvido... bolalik”, 16-bet) Bu Asror va Zoir o‘rtasidagi suhbat bo‘lib, to‘y marosimi haqida gap ketmoqda va shu o‘rinda “*erga tegmoq*” disfemik birligi ishlatilgan. Muallif bu iborani qo‘llash orqali qahramonlar o‘rtasidagi do‘stlik, yaqinlik va, asosiysi, bir-biridan uyalmaslik, hamma gapni ochiq aytish xususiyatlarini ochib bergan. Bu birlikni quyidagi evfemizmlar bilan almashtirganimizda uyalish, ochiq ayolmaslik fazilatlarini ko‘rishimiz mumkin:

- 1) turmush qurmoq;
- 2) boshini ikkita qilmoq;
- 3) oilali bo‘lmoq;
- 4) boshini bog‘lamoq;
- 5) egasiga topshirmoq;

Muallif *erga tegmoq* disfemizmidan foydalanish orqali qahramon xarakterini ochib bergan, biz sanab o‘tgan ibora va evfemik vositalardan foydalanilganda esa nutqiy vaziyat to‘liq ochib berilmagan bo‘lar edi. O.S.Axmanova disfemizga nisbatan aynan trop atamasini qo‘llaydi va bu orqali disfemiz va kokofemizm bir tushuncha ekanligini, tropning bir ko‘rinishi disfemizmligini ta’kidlaydi.

Evfemizm so‘zning hosila ma’nosi hisoblanib, aytilishi noqulay bo‘lgan ma’lum birlikka yumshoqroq munosabatni ifoda etuvchi so‘z va iboralardir. Masalan, *o‘ldi* evfemizm uchun asos bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, uning ma’nosi oshkor qilinmasligi kerak. M: - *Biz ularnikiga ijaraga turganmiz. Biram yaxshi odamlar edi, boyaqishlar. Kuzda xotini to‘ppa - to‘satdan qaytish qilib beruvdi. Endi o‘zi... bolalariga javr bo‘ldi.* (Alvido... bolalik. 95-bet) Keltirilgan matn tarkibida *qaytish qilmoq* evfemik vosita bo‘lib, “o‘lmoq”, “vafot

¹ Миртожиев М. Узбек тили семасиологияси. Т.: –Б 119.

² Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - С. 108.



etmoq”, “dunyodan ko‘z yummoq” kabi birliklarga **sinonimdir**. Bu birliklarning asosiy disfemizmi “o‘lmoq”dir. Muallif ushbu evfemik vositani qo‘llash orqali qahramon xarakterini ochib berishni maqsad qilgan deyishimiz mumkin. *Qaytish qilmoq* vositasi orqali personaj ko‘ngli yumshoq ekanligini va unga bemehrlik biroz bo‘lsa-da yiroq ekanligini anglash qiyin emas. Quyida keltirgan misollarimizda esa buning aksi, asar qahramoni Axbor nutqida ham disfemik birliklarni uchratishimiz mumkin. *M: Otam aroqxo‘r edi, onamni urardi. Meni buvim olib ketib boqdilar. O‘n ikkiga kirganimda buvimni moshina bosib o‘ldirdi. Moshina bosib o‘ldirdi* disfemik vositasi qo‘llangan bo‘lib, personajga nisbatan “diydasini qattiq” degan ta’rifning berilishiga sabab bo‘ladi. Bu kontekstdagi “moshina bosib o‘ldirdi” disfemik birlik dag‘al va qo‘poldir. Quyida “o‘ldirmoq” disfemik vositasining evfemik ko‘rinishlari keltirilgan:

- 1) avtohalokatga uchramoq;
- 2) avariya bo‘lmoq;
- 3) baxtsiz hodisa;

- *Bu yerga to‘planganlar dunyoning birdan bir yupanchi - shu shisha ichida deb bilishadi.*

Ana shu yupanch ertagami - indin o‘zlarini go‘rga tiqishini anglasalar ham xira pashshaday yopishaverishadi. Bu yerda “**go‘rga tiqmoq**” fe‘li disfemik birlikdir. Ushbu so‘zning eshitilishi qo‘pol, ammo asar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Asarning muhim jihati ham shunda. Bu iborani evfemik ham mavjud:

- 1) qabrga bormoq;
- 2) tuproq bo‘lmoq;

M: - Ukamizni qanotingizga oling. Tal‘at Shoumarov. Ikkinchi kursda o‘qir ekanlar. Amaliyotchi. Afg‘onistonda xizmat qilgan ekanlar. Kuch yetarli. Ammo bilim bilan tajriba boshqa. (Alvido... bolalik. 24-bet). Bu nutqda “qanotiga olmoq” iborasi evfemik birlik sifatida qo‘llangan. Bu mayor va bo‘lim boshlig‘ining o‘zaro suhbat bo‘lib, muallif bu iboradan foydalanish orqali bo‘lim boshlig‘ining mayorga nisbatan hurmat, yumshoqlik, iltimos ohanglarini ko‘rsatmoqchi. Bu evfemik birlikni quyidagi birliklar o‘rnida ham qo‘llash mumkin.

- 1) ish o‘rgatmoq;
- 2) tajriba orttirishiga yordam bermoq;

Manzura boshini egib, yig‘lab yubordi. Asadbek, shu paytgacha xotinini chertmagan odam, tarsaki qo‘yganini o‘zi ham sezmay qoldi.

- *Gapir, deyarman!*



O'zini qo'lga olish uchun Manzuraga shu tarsaki kifoya edi. (Shaytanat. 15-bet). Bu parchada “*xotin*” so‘zi disfemik birlik hisoblanib, qahramonning qahri qattiqligini ko‘rsatishga xizmat qilgan va asarning o‘ziga xosligini ta’minlagan. Bu leksemani quyidagi ma’nodoshlari bilan almashtirib qo‘llash mumkin edi:

- 1) turmush o‘rtoq;
- 2) zavja;
- 3) ayol;
- 4) jufti halol;

Bu birliklar asarning eng ahamiyatli va muhim qismi bo‘lib kelgan. Asarda disfemik birliklar anchagina. Bu qahramonlarning xarakterini va shaxsiyatini ochib berishga xizmat qilgan.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, leksik ma’no taraqqiyotida disfemik va evfemik birliklarning va ushbu hodisaning o‘rni muhim hisoblanadi. Bunday birliklar garchi shakily jihatdan o‘zgarib tursa-da, hosila ma’noni yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - С. 108.
2. Н.Жамолхонов. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2005.
4. R.Sayfullayeva va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2009.
3. Миртожиев М. Узбек тили семасиологияси. Т.:2010.
4. Tohir Malik. Alvido, bolalik. Т.: 1989.